


## BARQAROR IQTISODIY O'SISH VA IQTISODIY MUVOZANATLIKNI TA'MINLASH OMILLARI

Rasulov J.SH , TDIU

1- bosqich tayanch doktoranti

*Annotatsiya:* Zamonaviy dunyoda zamonaviy iqtisodiy dunyoqarashni va tamoyillarni yaratish va yuqori samaradorlikka olib keladigan, shuningdek xalqaro aloqalarga ijobjiy ta'sir etadigan iqtisodiyotni yaratish har bir davlat uchun muhimdir.

Iqtisodiy o'sishga erishish va uni doim yuqori suratlarda ta'minlab turish bugungi kundagi globallashib borayotgan dunyoda davlatlar iqtisodiyoti oldida turgan asosiy masala hisoblanadi. World Economic Outlook sayti ma'lumotiga ko'ra, global iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi 2021-yildagi 6.0% dan 2022-yilda 3.2% ga tushishi va 2023-yilda esa bu ko'rsatkich 2.7% gacha tushishi hisob kitoblar natijasida bashorat qilinayapti<sup>1</sup> [1]. Bu ko'rsatkichlar 2001 yildan beri global moliyaviy inqiroz va COVID-19 pandemiyasidan tashqari eng past ko'rsatkichlar sanaladi. Bu havotirli pasayish sur'atlari butun dunyo hamjamiyatini iqtisodiy o'sishga to'sqinlik qiladigan sabablarini chuqurroq o'rganishga va vaziyatni yaxshilash chora-tadbirlarini ishlab chiqishga doimiy undamoqda.




1-rasm: Global iqtisodiy pasayish holati (2010-2023 yillar) [2]

<sup>1</sup> [1],[2] .www.imf.com –Xalqaro valuta fondi saytidan muallif tomonidan olindi.

[www.pedagoglar.uz](http://www.pedagoglar.uz)

16-to'plam mart 2023

Ushbu chizmadan ham ma'lumki, barcha qit'alarda iqtisodiy pasayishning guvohi bo'lishimiz mumkin. Ushbu pasayishga sababchi bo'ladigan omillarni cheksiz ravishda sanab o'tish mumkin. Masalan, Covid-19 pandemiyasi va hozirgi kundagi dunyo mamlakatlari orasida ketadigan ziddiyatli holatlar va fors-major vaziyatlar o'sishni pasaytiradigan asosiy omillar hisoblanadi. Shunga qaramasdan yuqoridagi diagrammadan ko'rsak bo'ladiki, ushbu davlatlardan bir nechta 2010-2023 yillar mobaynida sezilarli o'sishga erishgan. Bulardan eng yuqori va barqaror ko'rsatkich Xitoy davlatiga to'g'ri kelmoqda. Endi, yuqori o'sish sur'atlariga erishning Xitoy tajribasi va ushbu davlat foydalanadigan iqtisodiy dastaklar va strategiyalarga qarab chiqamiz. Deyarli 45 yil oldingi iqtisodiy reformatsiyalar va savdo erkinlashuvidan oldin, Xitoy iqtisodiyoti juda nochor, o'zgarishsiz, markazdan boshqariladigan, keng miqiyosida samarasiz va global iqtisodiyotdan haddan tashqari ajratib turadigan siyosat olib borgan. 1979-yilda tashqi savdo va investitsiyalarga chiqish va erkin savdo o'zgarishlarini qilganidan beri, hozirgi kungacha Xitoy dunyoning eng tez o'sadigan iqtisodiyotiga ega davlat hisoblanadi, yillik o'rtacha YaIM( GDP) o'sish ko'rsatkichi 2018 yilgacha 9.5% ni tashkil qilgan [3]<sup>2</sup>.



<sup>2</sup> [3] World bank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan yozilgan.

[www.pedagoglar.uz](http://www.pedagoglar.uz)

## **2-chizma: Xitoy iqtisodiyotining asosiy iqtisodiy barqarorlik omillari[4]<sup>3</sup>**

Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasida O'zbekiston Respubliaksida ham qator islohotlar olib borilayapti. Jumladan, prezidentimizning parlamentga 2023-yil uchun yo'llagan murojatnomasida ham, oltinchi yo'naliш aynan Iqtisodiyotga mahalliy va xorijiy xususiy investitsiyalarni ko'paytirish uchun sharoitlarni yanada yaxshilashga bag'ishlandi. Chunki, zamonaviy iqtisodiyotda investitsiyalar iqtisodiyotni oldinga siljitudigan asosiy kuchga aylanib boryapti. Prezidentimiz nutqiga ko'ra, 2023 yilda qariyb 30 milliard dollar sarmoya jalg qilinadi, shundan 25 milliard xususiy investitisiyalar bo'ladi. Jumladan, umumiш qiymati 8 milliard dollarlik 300 dan ziyod loyihami ishga tushirish va yana 40 ta yangi loyiha boshlash ko'zda tutilgan [5]<sup>4</sup>.

Endi iqtisodiy o'sish omillariga to'xtalib o'tamiz:

### **1.**

### **Tabiiy**

**Resurslarning mavjudligi(Natural resources)[6]<sup>5</sup>:** Tabbiy resurslar iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradigan birinchi navbatli omil hisoblanadi. U iqtisodiy o'sishni sezilarli osonlashtiradi. Dubay yoki boshqa o'rta sharq mamlakatlari holatiga qaraydigan bo'lsak, ularning neft resurslariga boyligi ushbu davlatlar iqtisodiyotini ta'riflab beradigan omil hisoblandi. Shuningdek, Singapurga o'xshash boshqa davlatlarni ham misol qilish mumkin, ular tabiiy bandargohlarga egaligi tufayli asosiy transit nuqtasiga aylangan. Bunga qo'shimcha ravishda, iqtisodiy o'sishni ta'minlab beradigan boshqa omil bu ba'zi mamlakatlarning tabbiy boyliklari borligidir, masalan ko'mir yoki temir zahiralari, hattoki sug'oriladigan yerlarga egalik qilishi hamdir.

### **2.**

### **Davlatning**

**iqtisodiyotga aralashuvini cheklash (Deregulation):** Iqtisodiy jihatdan odamlar

<sup>3</sup> [4] Muallif tomonidan tuzildi.

<sup>4</sup> [5] Prezident Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrdagi parlamentga murojatnomasidan olindi.

<sup>5</sup> [6] "Management Study Guide" elektron jurnali ma'lumotlari asosida muallif tomonidan yozildi.

bir biri bilan erkin savdoni amalga oshirishi kerak. Chunki bu tabiiy tartib hisoblanadi. Ba’zi tajovuzkor hukumatlar bu erkinlikni olib qo‘yishga harakat qilishadi, ya’ni qonunlar va cheklovlar o‘rnataladi va savdo cheklanadi. Bu holat jamiyatdagi kam sonli guruhlarga boshqalar hisobidan manfaat keltiradi lekin, bu butun jamiyatga foyda keltirmaydi. Bu holat iqtisodiyotni orqaga suradi va muvozanatlikka sa;biy ta’sir ko‘rsatadi.

### **3.**

### **Texnologiyalar**

**(Technology):** Texnologiyalar har doim iqtisodiy o‘sishda muhim ro‘l o‘ynab kelgan. Sanoat revolutsiyasi ham texnologik rivojlanishlar tufayli kelib chiqqan. Insoniyat shundan beri hech ham texnologik rivojlanish jihatidan orqaga qaytgani yo‘q. Ishlab chiqarishdan tortib xizmat ko‘rsatishgacha va keyin ijtimoiy tarmoqlargacha, texnologiyalar ish bilan bandlikni va biznes o‘sishiga olib kelmoqda. Shu tufayli, texnologik mahoratni rivojlantiradigan davlatlar boshqalariga qaraganda tezroq o‘syapti. Germaniya misolida ko‘rib chiqsak. Mamlakat ikkala jahon urushida ikki marta vayron qilingan va o‘nlab yillar davomida kommunistik bosqin ostida bo‘lgan. Shunga qaramay, uning rivojlanishi huddi Germaniya kabi holatda bo‘lgan boshqa Yevropa davlatlariga qaraganda ancha ko‘proqdir. Tahlilchilarning xulosasiga ko‘ra, bu muvaffaqiyat Germanianing texnologiya rivojiga e’tibor qaratgani bilan bog’liq.

### **4.**

### **Inson**

**resurslari (Human resources):** Har bir millatning inson resurslari ulardan qanday foydalанишига qarab, davlatga foyda yoki zarar olib kelishi mumkin. Hindiston, misol uchun, u yerda aholining katta qismi mehnat qilish yoshida. Shuningdek, ularning ko‘pchiligi yaxshi ta’lim va ish mahoratiga ega.

## 5.

## **Infrastruktura**

**(Infrastructure):** Oxirgi o'rinda, lekin eng muhimi, Xitoyning rivojlanish modeli. Xitoy davlati ulkan infratuzilma loyihalariga katta miqdorda sarmoya kiritdi. Ushbu loyihalar amalga oshirilgach, aholi bandligini ta'minladi va iqtisodiyotni rag'bathlantirdi.

Mamlakatimizda ham iqtisodiyotni rivojlantirish hamda O'zbekiston respublikasida talab va taklif, ish bilan bandlik va ishsizlik va shunga o'xshash masalalarda muvozanatni saqlash uchun prezidentimizning PF-60-sonli "2022-2026 yillarga moljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi" to'grisidagi farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonning III-yo'nalishi "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" deb ataldi va quyidagi maqsadlarni o'z ichiga oldi.

- Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni — 1,6 baravar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish uchun zamin yaratish.
- Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish.
- Geologiya-qidiruv ishlari hajmini keskin oshirish, sohaga xususiy investorlar va ilg'or xorijiy kompaniyalarni keng jalg qilish.
- Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzlucksiz ta'minlash hamda "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish.
- Raqamli iqtisodiyotni asosiy "drayver" sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga qaratilgan ishlarni olib borish.

- Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko‘rish.
- Iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko‘paytirish maqsadida, kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSh dollaridan 7 milliard AQSh dollariga yetkazish.
- Respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026-yilda respublika eksport hajmlarini 30 milliard AQSh dollariga yetkazish.
- Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish.
- Qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘sishini kamida 5 foizga yetkazish.
- Suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish va suvni iqtisod qilish bo‘yicha alohida davlat dasturini amalga oshirish.
- Chorvachilik ozuqa bazasini kengaytirish va ishlab chiqarish hajmini 1,5 — 2 baravar ko‘paytirish.
- Hududlarni mutanosib rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiyotni 1,4 — 1,6 baravarga oshirish.
- Hududlarning muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tizimini hamda xizmat ko‘rsatish va servis sohalarini rivojlantirish.
- “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling” dasturi doirasida mahalliy sayyoohlар sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish.
- Barcha transport turlarini uzviy bog‘lagan holda yagona transport tizimini rivojlantirish, yirik shaharlar o‘rtasida kunlik transport qatnovlari asosida manzilga yetib borish va qaytib kelish imkoniyatini yaratish.

Xulosa qilib aytganda, barqaror iqtisodiy o'sish barcha davlatlarning asosiy maqsadi hisoblanadi. Shuning uchun, iqtisodiy o'sishni amalga oshirish uchun jamiyatdagi barcha ,ta'lim,sog'liqni saqlash, sport, iqtisodiyot, xalqaro aloqalar,soliq tizimi va shunga o'xshash soha va tarmoqlarni bir butunlikda isloh qilish zarur bo'ladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Sh.M.Mirziyoyev., 28.01.2023 yildagi Parlamentga murojatnomasi.
2. Z.A.Djumayev., "Makroiqtisodiyot" o'quv qo'llanma., 2018. -279 bet.
3. Daron Acemoglu., " Introduction to Modern Economic Growth".
4. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
5. [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org) –Jahon banki rasmiy sayti.
6. [www.imf.com](http://www.imf.com) – Xalqaro valyuta fondi rasmiy sayti.
7. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) –Davlar statistika qo'mitasi rasmiy sayti.